

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

“Buxoro tarixi” kafedrası

**«O‘zbekiston tarixi» fanidan kurs ishlarini bajarish
bo‘yicha**

USLUBIY KO‘RSATMA

**5121000 Tarix.Buxoro tarixi
5120400 - (60220400) Arxeologiya
5120300 – (60220300) Tarix (mamlakatlar va mintaqalar
bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun**

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2022**

Tuzuvchi : Bobir Boltayev

TAQRIZCHILAR:

Buxoro tarixi kafedrası mudiri t.f.f.d
(PhD) F.U.Temirov

Buxoro muhandislik - texnologiya instituti
dosenti,tarix fanlari nomzodi Yu.A. Shukrullayev

Mazkur uslubiy ko'rsatma BuxDU o'quv-metodik kengashining
2022-yil 27-maydagi 10-sonli yig'ilish qarori bilannashr qilish uchun
tavsiya etilgan.

1. UMUMIY QOIDALAR

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining hissasi oshib borayotgan hozirgi paytda ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi har bir korxonaga, firma yoki tadbirkor raqobat sharoitlarida xo‘jalik yuritish tizimida sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni amalga oshirishda o‘ziga xos munosib o‘rin egallashga intiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonida belgilab berilgan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturida ham aynan, viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan masalalar ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab berilgan.

2017-2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investisiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro‘yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog‘i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur. 2019 yilda barcha manbalar hisobidan qariyb 138 trillion so‘mlik yoki 2018 yilga nisbatan 16 foiz ko‘p investisiyalarni o‘zlashtirish mo‘ljallanmoqda. Bu borada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalar miqdori joriy yilga nisbatan qariyb 1,5 barobar oshirilib, 4,2 milliard dollarga yetkaziladi. Natijada 142 ta zamonaviy korxonaga ishga tushiriladi” deb ta’kidlab o‘tildi².

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. Xalq so‘zi, 08.02.2017 y. №28 (6722).

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so‘zi, 29 dekabr, 2018 yil.

“O‘zbekiston tarixi” va “Yangi O‘zbekiston tarixi” fani aynan yurtimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish va uni mo‘tadil rivojlantirishning yechimlarini topishda hamda bakalavr va magistratura yo‘nalishlarida 5121000 “Tarix. Buxoro tarixi”, 5120300 “Tarix(mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha)”, 5120400 “Arxeologiya” va (magistratura) 5A-220204 “Tarixshunoslik, manbashunoslik va tadqiqot usullari” mutaxassislarini shakllanishida katta ahamiyatga ega. **2022 yilni mamlakatimizda “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb e‘lon qilindi.O‘zbekistonni rivojlantirishning taraqqiyot strategiyasining**

IV.Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish bandida

Kasbiy ta‘lim bilan tizimli ravishda shug‘ullanish masalalarini to‘liq ravishda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ixtiyoriga o‘tkazish.Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, jami 1 million nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish.Umumta‘lim maktablarining kasb o‘rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko‘maklashuvchi tizimni joriy etish haqidagi fikrlar yoritildi.

46-maqсад: Oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta‘lim sifatini oshirish.

Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini 2022-yilda oshirish.2022-yilda yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish.To‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta‘lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish.2026-yilda qabul ko‘rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish.Davlat oliy ta‘lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to‘lash, xodimlar soni, to‘lov-kontrakt miqdori va ta‘lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo‘lga qo‘yish.Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash.

47-maqсад: 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta‘lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash³.

Oliy ta‘lim muassasalarining QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish.10 ta salohiyatli oliy ta‘lim muassasasini tanlash.Salohiyati va o‘ziga xos xususiyatidan kelib

³ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

chiqib, xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha 5 yilga mo'ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash.

48-maqsad: Qariyb 100 ming o'rinli talabalar turar joylarini barpo etish.

Talabalar turar joylarini davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etishda loyihalarni moliyalashtirishning maqbul usullarini yo'lga qo'yish.2022-yilda 18 800 o'rinli 47 ta talabalar turar joylarini barpo etish.2026-yilga qadar 72 400 o'rinli 181 ta talabalar turar joylarini barpo etish natijasida talabalarni yotoqxonalar bilan ta'minlash darajasini 60 foizdan oshirish.

49-maqsad: 2026-yilgacha nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish.

2022-yilda Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta'lim tashkilotini tashkil etish orqali ularning jami sonini 34 taga yetkazish.Qoraqalpog'iston Respublikasida 5 ta nufuzli mahalliy va xorijiy oliygohlarning filiallarini hamda Toshkent viloyatida 5 ming nafar talabaga mo'ljallangan Nurafshon davlat universitetini tashkil etish.Andijon viloyatida 4 ta xususiy oliygoh tashkil etish. Natijada hududdagi yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrovini 23 foizdan 50 foizga yetkazish.Namanganda kelgusi 5 yilda 7 ta oliygoh tashkil etib, jami oliy o'quv yurtlari soni 10 taga yetkazish.Samarqand shahrida 20 ming nafar talabaga mo'ljallangan "Yoshlar shaharchasi"ni barpo etib, unda kamida 4 ta xorijiy universitetning filial va kampuslarini joylashtirish. Xorijiy davlatlarning yetakchi texnika universiteti bilan birgalikda Samarqand texnologiya universitetini tashkil etish.Urganch davlat universiteti qoshida Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika markazi va jamg'armasini, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali va uning qoshida Urganch boshlang'ich raqs san'ati maktab-internatini tashkil etish.2026-yilga qadar respublika hududlarida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali ularning sonini 50 taga yetkazish.

50-maqsad: "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o'qitish.

Xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida bakalavriyat, magistratura va doktoranturada ta'lim olish uchun ochiq saralash tanlovlarini o'tkazish.Xorijiy oliy ta'lim muassasalarining bakalavriyat,

magistratura va doktorantura ta'lim dasturlarida qatnashish maqsadida Jamg'arma tomonidan ochiq tanlov e'lon qilish va o'tkazish.

51-maqсад: Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish.

Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xomashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirish, shu jumladan umumiy qiymati 165,9 milliard so'mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish.

Kurs ishini bajarish va himoya qilish yuqori kadrlarni tayyorlash jarayonining muhim bosqichi bo'lib, talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda kengaytirish, aniq ilmiy-texnik, iqtisodiy, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish vazifalarini hal qilishda ushbu bilimlardan foydalanish maqsadlarini ko'zlaydi. Bundan tashqari, kurs ishini bajarish oliy o'quv yurti talabasida mustaqil ish yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, aniqlangan muammo va kamchiliklarni yechishda keng izlanishlar hamda tajribalar o'tkazish imkonini beradi. Shuningdek, mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiyalash sharoitlarida talabaning mustaqil ishlash layoqatini va tayyorgarligini oshiradi.

Kurs ishi muayyan bir xo'jalik yurituvchi sub'yektining aniq ma'lumotlari asosida bajariladi. U mustaqil ilmiy tadqiqotga xos xususiyatlarni o'zida jamlashi va amaliyotga tatbiq etish uchun aniq tavsiyalarni ifodalashi lozim.

Kurs ishiga ilmiy rahbarlik qilishga kafedradan yetuk professor-o'qituvchilar biriktiriladi.

2. KURS ISHIGA MAVZU TANLASH

Kafedrada fanning o'quv dasturiga mos kurs ishi mavzulari va ularning taxminiy rejalari ishlab chiqiladi. Shunga asoslanib, talaba mustaqil ravishda kurs ishi uchun mavzu tanlaydi. Talaba ayrim hollarda kafedra bilan kelishgan holda ro'yxatda keltirilmagan, o'zi tomonidan taklif etilgan shaxsiy mavzusi bo'yicha kurs ishini bajarishi mumkin. Mazkur mavzu dolzarb bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning amaliy muammolarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Talaba kurs ishi uchun mavzu tanlab bo'lgach, uni bajarishga ruxsat berishni so'rab kafedra mudiri nomiga ariza yozadi. Arizada kurs

ishi mavzusining nomlanishi va ish bajariladigan xo‘jalik yurituvchi sub‘yektning nomi aniq ko‘rsatiladi (1-ilova).

Kafedra mudiri arizani ko‘rib chiqadi va kurs ishining mavzusini talabaga biriktirish to‘g‘risida qaror qabul qiladi hamda ilmiy rahbarni tayinlaydi.

Kurs ishining mavzulari va ilmiy rahbarlari universitet rektorining buyrug‘i asosida tasdiqlanadi.

3. KURS ISHIGA ILMIY RAHBARLIK QILISH

Kurs ishining mavzusi va ilmiy rahbari universitet rektorining buyrug‘i asosida tasdiqlangandan so‘ng, talaba mavzuga tegishli adabiyotlarni o‘rgangan holda ilmiy rahbar bilan birgalikda ishning rejasini ishlab chiqadilar. Mazkur jarayon talabaga ilmiy rahbar tomonidan beriladigan kurs ishi topshirig‘ida o‘z aksini topadi.

Talaba ilmiy rahbar bilan belgilangan kunlar va soatlarda muntazam ravishda uchrashib, kurs ishini bajarilishini muhokama etib borishi hamda u bo‘yicha maslahatlar olishi kerak.

Ilmiy rahbarning vazifalari quyidagilardan iborat:

- kurs ishi bo‘yicha ilmiy va uslubiy yordam berish;
- ish mavzusi bo‘yicha muntazam ravishda suhbatlar va maslahatlar o‘tkazib turish;
- ishni bajarish uchun zurrur bo‘lgan adabiyotlar va ma‘lumotlardan foydalanish yuzasidan tavsiyalar berish;
- ishning kamchiliklarini ko‘rsatish va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berib borish;
- bajarilgan ishni baholash;
- ishni o‘z taqrizi orqali himoyaga taqdim etishga tavsiya berish;
- talabani kurs ishi himoyasiga axborot-kommunikasiya vositalaridan foydalangan holda taqdimot qilishga tayyorlash.

Ishning ilmiy rahbari uning sifati hamda mazkur uslubiy ko‘rsatma talablariga qat‘iy rioya qilingan holda bajarilishiga mas‘ul hisoblanadi.

4. KURS ISHINING MAZMUNI

O‘quv rejasida ko‘rsatilgan fan bo‘yicha kurs ishi mazmuni uning mavzusidan kelib chiqib belgilanadi.

Kurs ishining tarkibiy tuzilishi quyidagilardan iborat:

- kurs ishining muqovasi (titul varag‘i);

- ish mazmunining mundarijasi (rejasi);
- kirish;
- kurs ishining asosiy matn qismi (nazariy va amaliy savollar paragraflarda);
- xulosa va takliflar;
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
- ilovalar.

Kurs ishi mundarijasi (rejasi) talaba tomonidan tuziladi va ilmiy rahbar bilan kelishgan holda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Ishning kirish qismida tanlangan kurs ishi mavzusining dolzarbligi va ahamiyati, real sharoitlarda bu masalaning qo'yilishi va yechimining o'ziga xos jihatlari asoslab beriladi. Shuningdek, bu qismda kurs ishining maqsad va vazifalari, muammoning o'rganilganlik darajasi, kurs ishi ob'yekti va predmeti, kurs ishining tuzilishi aniq ko'rsatiladi.

Kurs ishining asosiy matn qismida o'rganilayotgan mavzuning nazariy asoslari ochib beriladi hamda tanlangan mavzuning umumnazariy masalalari ko'rib chiqiladi. Kurs ishining bu qismida amaliy ma'lumotlardan foydalanilgan holda tadqiqot ob'yektining tashkiliy-iqtisodiy tavsifnomasi beriladi. Talaba tanlangan ish ob'yektining faoliyatini har tomonlama, chuqur tahlil qilgan holda, undagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarni ilmiy asoslab beradi.

Asosiy matn qismining barcha paragraflari tadqiqot ob'yektining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar bilan tugallanadi.

Ishning xulosa va takliflar qismida o'tkazilgan tadqiqotga qisqacha yakun yasab, tanlangan kurs ishi mavzusi yo'nalishlariga muvofiq holda tadqiqot ob'yekti faoliyatini to'g'ri tashkil etish va uni takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish bo'yicha aniq takliflar bayon etiladi.

Kurs ishi talaba tomonidan mustaqil holda mantiqiy jihatdan ketma-ketlik, izchillik uslubda yozilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, ishda foydalanilgan adabiyotlardan to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib yozishga (plagiatlikka) umuman ruxsat etilmaydi. Ishning plagiatlik asosida bajarilganligi aniqlanganda, u himoya qilishga tavsiya etilmaydi.

5. KURS ISHI BAJARISHNI TASHKIL ETISH

Kurs ishining topshirish muddati o'quv rejasiga asosan belgilanadi.

Talaba tadqiqot bajariladigan ob'yektning faoliyatini o'rganadi, shuningdek, kurs ishini bajarish uchun zarur bo'lgan amaliy materiallarni to'playdi.

Kurs ishining ilmiy rahbari talaba bilan birgalikda kurs ishini bajarish topshirig'ini ishlab chiqadi.

Kurs ishini bajarish ilmiy rahbar bilan kelishgan holda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan topshiriqqa qat'iy muvofiq holda amalga oshirilishi lozim. Kurs ishi topshirig'ining namunasi 2-ilovada keltirilgan.

6. ADABIYOTLARNI O'RGANISH, MA'LUMOTLARNI TO'PLASH, XULOSA VA TAKLIFLARNI ASOSLASH

Tanlangan kurs ishi mavzusiga muvofiq, talaba mustaqil ravishda tegishli adabiyotlarni, rasmiy hujjatlarni, tadqiqot ob'yekti bo'yicha statistik, buxgalteriya, joriy va reja materiallarini o'rganadi. Adabiyotlarni o'rganish talabaga tadqiqotning nazariy asoslarini aniqlab olish, ya'ni mavzuga aloqador bo'lgan faoliyatni tashkil etish va takomilashtirish, o'rganilayotgan jarayonlarning rivojlanish konuniyatlarini va ilmiy atamalar tizimini bilib olish imkonini beradi. Mavzuga taalluqli masalalarning hozirgi ahvolini chuqur o'rganish kurs ishini yozish uchun zarur materiallarning hajmini va xarakterini aniqlashga imkon yaratadi.

Kurs ishini bajarishda mavzuga tegishli bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlarini, Qarorlarini, ma'ruzalarini, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlarini o'rganishni nazarda tutadi. Mavzu bo'yicha materiallarni o'rganayotganda unga tegishli bo'lgan maxsus adabiyotlar, jurnallar va ro'znomalarida bosilgan maqolalarga alohida e'tiborni qaratish lozim. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi materiallaridan, internet saytlaridan ham keng foydalanish kerak.

Tadqiqot ishining hisobot ma'lumotlari kamida so'nggi besh yillikni qamrab olishi kerak. O'zaro taqqoslash uchun bir xil sharoitlarda faoliyat ko'rsatayotgan mos korxonalarining tajribalarini o'rganish muhimdir.

To‘plangan haqiqiy ma’lumotlar o‘rganayotgan masalaning hozirgi axvolini ifodalashga, rivojlanish jarayonlari va yo‘llarini aniqlashga imkon beradi, ko‘rib chiqilayotgan muammoni hal qilish va uni takomillashtirish uchun zamin yaratadi.

Ayrim hollarda o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha zarur ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun maxsus kuzatuvlar o‘tkaziladi.

To‘plangan raqamli ma’lumotlar tahliliy jadvallarda, grafik va chizmalarda tartibga solinib umumlashtiriladi. Bularning hammasi tadqiqotning tahlillari, xulosalari va tavsiyalari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Olingan materiallarni tahlil qilish natijalari o‘rganib bo‘lingach, xulosa va takliflarni asoslashga kirishiladi. Ishning bu qismida eng muhim xulosa va takliflar bayon etiladi.

7. KURS ISHINI RASMIYLASHTIRISH

Kurs ishiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri, uni belgilangan qoidalar asosida to‘g‘ri rasmiylashtirish hisoblanadi. Chunki ishni to‘g‘ri rasmiylashtirish uning sifatini oshiribgina qolmay, balki muvaffaqiyatini ham ta’minlaydi.

Ishning rejasi mavzuning mazmunini to‘liq yoritishga qaratilishi kerak. Matnda ketma-ketlik buzilmasligi hamda izchillikka rioya qilinishi shart. Matnda yangi fikrni ifodalaydigan jumlar abzasdan yoziladi. Agar biror bir manbalardan misollar keltirilsa, ular qaysi manbadan olinganligi ishorasi sahifaning eng pastida chiziq tagida satr boshidan yoziladi. Agar bir nechta manba keltirilsa, ishoralar shu yerda tartib raqami bilan ko‘rsatiladi.

Kurs ishini bajarish jarayonida to‘plangan va qayta ishlangan ma’lumotlar aniq, tartibli va xaqqoniy bo‘lishi kerak. Materiallar bayoni mantiqiy izchil, jumla tuzilishlari qisqa va aniq, mavhumlik va qaytarishlar bo‘lmasligi, xulosalar isbotlangan va tavsiyalar asoslangan bo‘lishi kerak.

Kurs ishi muqovasi 3-ilovada ko‘rsatilgan namunaga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Mundarija (reja) kurs ishining qismlarini, savollarning nomlanishlarini, betlarning raqamlanish tartibini o‘zida ifoda etadi. Kirish, xulosa va takliflar bo‘limlarini istisno etgan holda barcha savollar, arab raqamlari bilan raqamlanishi kerak. Savollarning tartib

raqamidan keyin nuqta qo'yiladi va savollar yoziladi. Kurs ishi mundarijasini (rejasini) rasmiylashtirish namunasi 4-ilovada keltirilgan.

Kurs ishi betlari sahifaning yuqori qismining o'rtasidan ketma-ketlik bo'yicha raqamlanishi lozim. Muqova varag'iga tartib raqami qo'yilmaydi. Agar kurs ishida rasmlar, chizmalar va jadvallar bo'lsa, ularni umumiy raqamlanishga qo'shish kerak. Ilovalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ham ketma-ketlikda raqamlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati foydalanilgan barcha manbalarni alfavit tartibi bo'yicha o'zida jamlaydi (5-ilova).

Ilova kurs ishining oxirida beriladi. Har bir ilova yangi betdan boshlanadi, sahifaning o'ng tomonidan yuqori burchagida "ilova" degan so'z yozib qo'yiladi. Har qaysi ilova sarlavhaga ega bo'lishi kerak. Mabodo kurs ishida ikki va undan ziyod ilova bo'lsa, ular ketma-ketlikda raqamlanadi, ya'ni «1-ilova», «2-ilova» va hokazo. Ishda illyustrasiyalar ularning mazmuniga qarab belgilanadi va bayon qilinayotgan matnda aniqlik kiritish uchun yetarlicha bo'lishi kerak. Barcha illyustrasiyalar (chizmalar, diagrammalar, grafiklar va hokazolar) rasmlar deb nomlanadi. Rasmlar ham ketma-ketlik bo'yicha raqamlanadi. Ular bevosita kurs ishi matni qayd etilgan joyda yoki keyingi betda yo bo'lmasa qayd etilgan sahifaga yaqinroq joyda joylashtirilishi lozim.

Raqamli ma'lumotlarni jadval tarzida ifodalash tavsiya etiladi. Har bir jadval o'z mazmunidan kelib chiqqan holda nomlanishi va tegishli jadval tepasida, jadval so'zi yozilishi kerak.

«Jadval» so'zi botiq harflar bilan sahifaning o'ng tomonida yoziladi. Sarlavhani ajratib ko'rsatishning hojati yo'q.

Jadval matnda birinchi marta eslatilgandan keyin joylashtirilgani ma'qul. Jadval keyingi sahifaga ko'chiriladigan bo'lsa, ustun raqamlanadi va bu raqamlanish keyingi betda takrorlanadi. Jadvallar ham xuddi rasmlar kabi raqamlanadi, ya'ni «1-jadval», «2-jadval» va hokazolar.

Ishda formulalar keltirilsa, ular aniq yozilishi kerak. Berilgan formula ostida belgilar va son darajalari tushuntirish ma'nosiga qarab, ular formulada kanday berilgan bo'lsa, shu tartibda berilishi lozim. Har bir belgi va son darajasining ma'nosi yangi so'z qatoridan beriladi.

Matnda keltirilgan ma'lumotlar manbasi tartib raqami bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatib o'tiladi.

Kurs ishini yozayotganda, adabiyot manbalaridan, ko'rsatmalardan, idoraviy ma'lumotlardan ko'chirish, shuningdek,

rasmiy qabul kilinmagan soʻzlarni, iboralarni, atamalarni ishlatish taʼqiqlanadi.

Kurs ishini yozib tugatgach, uni savollarining oʻzaro bogʻlanishiga va bayon etilish usuliga (adabiy tiliga) alohida eʼtibor bergan holda qayta oʻqib chiqish kerak. Koʻpincha qayta oʻqilishda ilgari bilinmagan xatolarga, qaytarishlarga, qarama-qarshi fikrlarga, notoʻgʻri tanlangan qiyoslashlarga va turlihil hatolarga duch kelinadi. Ayniqsa, formulalarni, raqamlarni, koʻchirmalarni, bibliografik yozuvlarni dastlabki manbalar boʻyicha diqqat bilan tekshirib chiqish talab etiladi. Zarurat tugʻilganda qoʻlyozmani toʻldirib, maromiga yetkazish lozim.

Kurs ishining matni 210-297 mm. shakldagi oq qogʻozga koʻlyozma shaklida yozilishi kerak. Jadvallar, rasmlar, chizmalar va grafiklar kompyuterda yozilishi mumkin. Matn tushunarli husnixatda, tuzatishlarsiz, yozuv qogʻozining bir tomoniga yozilishi kerak. Ishning umumiy hajmi 30-40 betdan iborat boʻlishi lozim. Har bir betda: chap tomondan -3 sm, oʻng tomonidan - 1sm, yuqoridan va pastdan - 2 sm ochik joy qolishi kerak. Kurs ishi rejasidagi savollarning nomlari ishning tegishli joylarida sarlavha sifatida takrorlanishi lozim. Yozib tugallangan kurs ishiga talaba tomonidan imzo qoʻyiladi.

8. KURS ISHIGA TAQRIZ YOZISH VA UNI HIMOYA QILISH

Yozib tugallangan va ilmiy rahbar tomonidan maʼqullangan, muqovalangan kurs ishi belgilangan muddatda kafedraga topshiriladi hamda taqriz kilinadi.

Kurs ishi taqrizida ishning ilmiy darajasiga, amaliy tavsiyalarning asoslanganligiga va ularning ahamiyatiga baho berilishi, yoʻl qoʻyilgan mavjud kamchiliklar koʻrsatilishi hamda talaba mahorati baholanishi lozim (6-ilova).

Talaba kurs ishini himoya qilishga tayyorgarlik paytida bajarilgan mavzuning mazmun-mohiyati boʻyicha qisqacha maʼruza matnini tayyorlashi hamda himoya taqdimoti uchun zarur boʻladigan koʻrgazmali materiallarini tayyorlab qoʻyishi, taqriz mazmuni bilan tanishib chiqishi va taqrizchi eʼtirozlariga javob tayyorlagan boʻlishi kerak. Kurs ishi himoyasiga axborot-kommunikasiya vositalaridan foydalangan holda taqdimot tayyorlash talab etiladi.

Kurs ishi himoyasi uch aʼzodan iborat tarkibdagi komissiyaning ochiq majlisida himoya qilinadi. Talaba 10 daqiqagacha kurs ishining

asosiy natijalarini, taklif va xulosalarni izohlab beradi. Byerilgan savollarga javob beradi.

Komissiya kurs ishining himoya natijasi va ilmiy rahbarning taqrizini hisobga olgan holda uni 100 ballik tizim bo'yicha baholaydi.

9. BAHOLASH TARTIBI VA MEZONLARI

Talabalarning kurs ishi bo'yicha bilim saviyasi, ko'nikma va malakalari darajasi, ular bilimni nazorat qilish hamda baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom qoidalari asosida ballarda ifodalanadi.

Amaldagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizomning (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ro'yxatidan qayta o'tkazilgan) 13-bandiga muvofiq talabaning kurs ishi bo'yicha o'zlashtirish darajasi – 100 ballik tizimda baholanadi.

Mazkur Nizomning 22-bandiga ko'ra talaba fan bo'yicha kurs ishini ushbu fan bo'yicha to'plagan ballari umumlashtirilishiga qadar, ya'ni yakuniy nazorat turigacha toshirishi shart.

Talaba kurs ishi bo'yicha yig'ishi mumkin bo'lgan maksimal ball – 100 ball bo'lib, u quyidagicha taqsimot qilinadi:

Kurs ishi bo'yicha ajratilgan ballning 60 foizi saralash ball etib belgilanadi. Saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor talaba hisoblanadi.

Ballar taqsimoti (o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha namunaviy baholash mezonlari):

No	O'zlashtirish ko'rsatkichlari
1	0-59 ball-"qoniqarsiz"
1	60-69 ball-"qoniqarli"
2	70-88 ball-"yaxshi"
3	89-100 ball-"a'lo"

Namunaviy mezonlar asosida muayyan fandan bajarilgan kurs ishi bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan

tasdiqlanadi va u ishning himoyasidan avval talabalarga e'lon qilinadi (7-ilova).

Kurs ishi bo'yicha akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirishi uchun bir oy muddat beriladi. Kafedra tomonidan tayinlangan ilmiy rahbarlarga, kurs ishi bo'yicha akademik qarzdor talabalar bilan faol ishlash vazifasi yuklatilib, u maxsus jadval asosida amalga oshiriladi. Yuqorida ko'rsatilgan muddat davomida kurs ishini "qoniqarsiz" (0-54 ball) bahoga himoya qilgan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda universitet rektorining buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Kurs ishini baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, universitet o'quv-uslubiy boshqarmasi hamda monitoring va ichki nazorat bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Kurs ishi himoyadan so'ng 2 yil davomida universitet arxivida saqlanadi.

NAMUNA

1-ilova

Talabaning kurs ishi mavzusini birlashtirilishi bo'yicha yozadigan arizasining namunasi

“Buxoro tarixi” kafedrasini mudiri
Temirovga
5120300 – (60220300) Tarix (mamlakatlar
va mintaqalar bo'yicha), 5120400–
(60220400) Arxeologiya,
5121000 - Buxoro tarixi 2-kurs guruhi
talabasi _____
_____ dan

ARIZA

Sizdan menga

“

(fanning nomi)

_____” fanidan

“

_____ (mavzuning nomi)

_____ mavzusidagi kurs ishini biriktirishga ruxsat berishingizni so‘rayman.

Kurs ishi _____ (korxonona nomi)

_____ ma’lumotlari asosida bajariladi.

_____ / _____ /
sana

imzo

NAMUNA

2-ilova

Kurs ishi topshirig‘ining namunasi

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

“Tasdiqlayman”

Kafedra mudiri _____

“ ___ ” _____ 20__ yil

KURS ISHIGA TOPSHIRIQ

1. Talabaga _____

(famiyasi, ismi, otasining ismi)

2. Mutaxassislik _____

(mutaxassislik nomi)

3. Fan _____

(fanning nomi)

4. Kurs ishining mavzusi _____

(kurs ishi va ob‘yekt nomi)

5. Ish rahbari _____
(familiyasi, ismi, otasining ismi, ilmiy darajasi va unvoni)

№	Ish mundarijasi (rejasi)	Bajarish muddati
	Kirish	
1		
2		
3		
4		
...		
	Xulosa va takliflar	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	
	Ilovalar	

6. Ishni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

7. Ishni topshirish muddati " ____ " _____ 20__ yil

8. Kurs ishi rahbari _____
F.I.Sh.

9. Talaba:
"Topshiriqni bajarish uchun oldim" _____
F.I.Sh.

10. Topshiriq berilgan sana " ____ " _____ 20__ yil

Kurs ishining muqovasini rasmiylashtirish namunasi

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
«BUXORO TARIXI» KAFEDRASI**

**“Ro‘yxatga olindi”
“Buxoro tarixi»
kafedrası**

“ _____ ” _____ 2022 y.

“O‘zbekiston tarixi” (Tarixiy o‘lkashunoslik) fanidan

(ob‘yekt nomi qavs ichida)

_____ mavzusidagi

KURS ISHI

BAJARDI: 5120300 - Tarix
(mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha),
5120400 - Arxeologiya, 5121000 -
Buxoro tarixi 2-kurs bakalavr talabasi

ILMIY RAHBAR:
«Buxoro tarixi» kafedrası
Dosenti (katta o‘qituvchisi)

Buxoro – 2022

 Kurs ishi mundarijasini (rejasini) rasmiylashtirish namunasi

Mavzu: O‘zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari
Mundarija

bet

Kirish	3
1.O‘zbekistonni rivojlantirishning ilmiy ahamiyati barqarorligi va rivojlanish strategiyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	6
2.O‘zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va ularning hayotimizga izchilik bilan tadbiiq etilishi.....	9
3. Sogliqni saqlash sohasidagi belgilovchi ko‘rsatkichlar tahlili.....	15
4. Ilm-Fan va ta’limga e’tiborning harakatlar strategiyasidagi ustivor yo‘nalishlardan biri ekanligi	30
5.Qishloq xo‘jaligi va milliy xafsizlikning dolzarb vazifalari hamda uni rivojlantirishning bosqichlari.....	36
Xulosa va takliflar	
Foydanilgan adabiyotlar ruyxati.....	38
Ilovalar	40

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. «Xalq so'zi» G.// 08.02.2017 y. №28 (6722).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi» G.// 16.01.2017 y.

3. O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot / Mualliflar jamoasi: R.O. Alimov, A.F. Rasulev, A.M. Qodirov va boshqalar // S.S. G'ulomov tahriri ostida. –T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. 26b.

4. Abdukurimov I.T. va boshqalar Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2010, – 256 b.

5. Vahobov A. va boshq. Moliyaviy va boshqaruv tahlili: Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 480 b.

6. Maxmudov E.X., Isoqov M.Yu. Biznes - ryejalashtirish. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, – 160 b.

7. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004, – 208 b.

8. Akromov E.A Korxonalar moliyaviy holati tahlili. – T.: Moliya, 2010, 223 b.

9. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)

10. www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)

11. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)

12. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)

13. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)

14. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Eslatma: Talaba foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan so'ng kurs ishini bajargan sanasini ko'rsatib imzo chekadi va undan keyin ilovalarni tartib raqami bo'yicha tikib chiqadi.

Kurs ishi taqrizining tavsiya etilayotgan tuzilishi

1. Mavzuning dolzarbligi va uning ahamiyatini yoritib berilishi.
2. Nazariy savollarning chuqur yoritilganligi.
3. Foydalanilgan amaliy ma'lumotlarning aniqligi va xaqqoniyligi.
4. Zamonaviy izlanish usullarining qo'llanilganligi.
5. O'rganilgan savollar tahlilining chuqurligi.
6. Xulosalarning to'g'riligi.
7. Takliflarning amaliy ahamiyati.
8. Amaliyotga joriy etilishi mumkin bo'lgan takliflar hamda tavsiyalar va ularning iqtisodiy samaradorligi.
9. Ishda yo'l qo'yilgan mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar.
10. Kurs ishini himoyaga tavsiya etish yoki himoyaga tavsiya etmaslik bo'yicha xulosa.
11. Taqrizchining familiyasi, ismi va otasining ismi, ilmiy darajasi va unvoni hamda imzosi.
12. Taqriz yozilgan sana.

Kurs ishining baholash mezonlari namunasi.

“Tasdiqlayman”
 “Buxoro tarixi ” kafedrası
 mudiri F.Temirov
 _____ 2022 yil

Tarix. Buxoro tarixi, Arxeologiya, Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) ta'lim mutaxassisligidagi “O'zbekiston tarixi va Yangi O'zbekistonning tarixi ” fani bo'yicha bajarilgan kurs ishining

BAHOLASH MEZONLARI

№	Mezonlar	Maksimal ball
1	Mavzuning dolzarbligi. Ish rejasini mavzuga mos ravishda tuzilishi.	0-5
2	Ishning ilmiy-uslubiy yangiliklari va ijodiy (mustaqil va tanqidiy tahlil) yondashish darajasi.	0-10
3	Mavzu bo'yicha ish natijalarini talabalarning ilmiy to'garaklarida va konferensiyalarida taqdimot etilishi.	0-5
4	Ishning matnini rasmiylashtirish (jadval, chizma, grafik va rasmlardan keng foydalanish).	0-20
5	Ishning natijalari bo'yicha qilingan ilmiy-amaliy xulosalar.	0-15
6	Ishning imlo xatolari (orfografiya).	0-5
7	Ishning uslubiy xatolari (stilistik).	0-5
8	Ishning husni xati (kolligrafiya).	0-5
9	Talabaning himoya qilish darajasi. Ishning taqdimoti jarayonidagi mahorati.	0-15
10	Ish bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri, aniq va to'liq javob berish.	0-10
11	Ish himoyasi taqdimotida axborot-kommunikasiya vositalaridan foydalanish.	0-5
	Jami:	100

Kurs ishining mazkur baholash mezonlari “2021 yil 27 avgust” dagi kafedra yig'ilishida muhokama qilib ma'qullangan. Bayonnoma № 1

Kurs ishiga beriladigan ilmiy rahbar taqrizi namunasi.

Buxoro davlat universiteti

Tarix mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha ta'limi yo'nalishi 2-kurs 5-1, 5-2

Tar 2020 guruhi _____

talabasi _____ **ning** _____

mavzusi bo'yicha kurs ishiga

T A Q R I Z

Mavzuning dolzarbligi _____

Yutuqlari _____

Kurs ishi kamchiliklar _____

Xulosa(himoyaga tavsiya etiladi, himoyaga tavsiya etilmaydi)

Ilmiy rahbar: _____

(F.I.Sh., imzo)

Kurs ishiga beriladigan ilmiy rahbar taqrizi namunasi.

Buxoro davlat universiteti

Tarix mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha ta'limi yo'nalishi 2-kurs 5-1, 5-2

Tar 2020 guruhi _____

talabasi _____ **ning** _____

mavzusi bo'yicha kurs ishiga

T A Q R I Z

Mavzuning dolzarbligi _____

Yutuqlari _____

Kurs ishi kamchiliklar _____

Xulosa(himoyaga tavsiya etiladi, himoyaga tavsiya etilmaydi)

Taqrizchi

pedagog: _____

(F.I.Sh., imzo)

«O‘zbekiston tarixi» fanidan kurs ishlarini bajarish bo‘yicha

USLUBIY KO‘RSATMA

Muharrir: A. Qalandarov
Texnik muharrir: G. Samiyeva
Musahhih: Sh. Qahhorov
Sahifalovchi: M. Bafoyeva

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-
maketdan bosishga ruxsat etildi: 06.06.2022. Bichimi 60x84. Kegli
16 shponli. «Cambria» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 1,5. Adadi 100. Buyurtma №233.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45